

**Developing speaking skill through games**  
**So'zlashuv mahoratini o'yinlar orqali rivojlantirish**  
Bahromova Munisa Otabekovna  
Termiz Davlat Universiteti 1-bosqich talabasi

**Anotatsiya:** Ushbu maqola so'zlashuv mahoratini oshirishda,turli xil o'yin turlaridan foydalanishga bag'ishlangan.Maqlada so'zlashuvda foydalanish kerak bo'lgan idiomalar,so'z birikmalaridan foydalanib,o'yinlar tuzilgan.

**Annotation:** This article discusses the using of didactical games in order to develop the speaking skill and made up games by using idiomas,phrases that should be used in the speech.

**Kalit so'zlar:** o'yinlar, hamkorlikda o'rganish (co-operative learning)

**Key words:** games,learner-centred approach,co-operative learning skills.

Nutq-insonning hayotidagi eng muhim o'rinni egallaydigan faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyatda insonlar turli-tuman nutqiy birliklardan foydalanish bilan birga aqliy jihatdan ham qobiliyatlarini ishga soladi. Talabalar yoki o'quvchilardan kelib chiqib fikr yuritadigan bo'lsak,ularning ko'pchiligi ingliz tilida ravon so'zlashishga moyil ammo qanday qilib so'zlashuvda ravon gapirib,insonlarni o'zlariga jalg qilishda,so'zlashuv mahoratlarini oshirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Faqatgina oddiy so'zlashuv uslubidan foydalanib gapirish yo'lini o'zlariga afzal ko'radi. Bunday holatlar faqatgina so'zlashuv qobiliyati sustligidan,oddiy til qolipiga moslashib qolganligidan darak beradi. So'zlashuv nutqi til o'rganishdagi eng asosiy va eng e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan birlik hisoblanadi.

Ingliz tilini o`rganishda hamkorlikda til o'rganish hozirgi kunda keng qo'llanilmoqda. Hamkorlikda til o'rganish nima? Bu guruh bo'lib o'rganiladigan mashg'ulot turi bo'lib, o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy tuzilgan, ma'lumot almashinuviga asoslangan mashg'ulot turidir.[1]

Guruh bo'lib o'rganish faoliyati o'quvchilarni mustaqil ravishda va hech qanaqa, o'qituvchi qo'ygan talablarsiz, erkin muloqot qilishni yaratib beradi.

## O'quvchilarning so'zlashuv mahoratidagi rivojlanishlari

Hamkorlikdagi o'rghanishning ba'zi asosiy elementlari o'quvchilarda so'zlashuv qobiliyatini rivojlantirishda kuzatiladi:

- (1) Ijobiy o'zaro bog'liqlik
- (2) yuzma-yuz rag'batlantiruvchi jarayon
- (3) individual va gurux javobgarliklari
- (4) shaxslararo va jamoaviy mahoratlar
- (5) gurux nazorati (Marzano, Pickering & Pollock, 2001, p. 85-86)

Ko'plab olimlarning ta'kidlashlaricha so'zlashuv qobiliyatlarini o'yinlar orqali rivojlantirish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Nafaqat og'zaki mahoratini rivojlantirishda, balki o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini o'stirishda, guruhda odamlar qarshisida o'zini yo'qotib qo'ymaslikni va chet tilini xuddi o'z ona tilisida so'zlashgani kabi rivojlantirishda o'z hissasini qo'shamdi.[2]

Sinfda ushbu jarayonni rivojlantirishni tadbiq etish uchun turli xil rag'batlantiruvchi sovg'alar joriy etish lozim. Masalan: bir o'quvchi o'tiladigan yangi mavzu yuzasidan mustahkamlash uchun mustaqil o'yinlar tayyorlab kelsa o'sha o'quvchini,o'qituvchi tomonidan rag'batlantirish.Ingliz tilida so'zlashuv muhitini dars jarayonida yaratish va unda kimda kim qoidani buzib o'z tilidan foydalansa ilmiy jarimaga tortish:bitta o'zbekcha so'zga 3 dona inglizcha idioma aytish,va shu kabilar dars murabbiysi tomonidan tashkil etilsa eng samarali,eng qulay usullardan biri bo'ladi.

So'zlashuv bu butun hamma qobiliyatlarni o'z ichiga oladigan nutq mahorati hisoblanadi ammo u samarali va faol mahorat turi hisoblanishiga qaramasdan o'rGANUVCHILARNING ko'pchiligi uni o'zlashtira olmaydi.Chunki ularning 90%idan ko'pi gapishtirish jarayonida birikmalar,so'zlardan foydalanishda xatolar qilishdan,o'zlarining shaxsiy fikrini ifoda etishdan qo'rqaadi.Shu sababli o'quvchilarning ko'pchiligi har kunlik yangi o'zlashtirayotgan tilidan foydalanmaydi.Yuqorida ta'kidlanganidek bu muammoning yechimi,o'qituvchilar o'quvchilarni qay tartibda rag'batlantirish usullarini o'rGANISHLARI lozim.Dars jarayonida o'yinlardan foydalanishning ko'plab afzallikkleri mavjud.

Birinchidan: O'yin vaqtida barcha o'quvchilar faol ishtirok etadi chunki ularning barchasiga bir xil vazifa beriladi.

Ikkinchidan: So'zlashish mahoratiga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning nutq mahoratini oshirishga xizmat qiladi chunki ular inovatsion ko'nikmalar hisoblanadi.

Uchinchidan: Ularda gapirishga o'zlarida xohish paydo bo'ladi chunki o'qituvchi bu o'yin orqali o'quvchilarga hech qanday bosimsiz gapirish hissini uyg'ota oladi. Ular erkinlikda bir birlari bilan fikr almashadi.

O'yinlar orqali dars mashg'ulotlarini tashkil etish har tomonlama samarali usullardan biridir. Ular bu orqali nutq mahorati nima ekanligini va shu bilan birgalikda,dars jarayonini oson tushunishga erishadi. Hamkorlikdagi o'yinlarni tashkil etish o'quvchilar ongida nafaqat so'z boyliklarini oshirishga balki qanday vaziyatlardan qay tartibda so'zlash mahoratini,nutq madaniyatini, hozirjavoblikni, erkin muloqotni o'rghanadi. Bu esa o'z-o'zidan nutqni boyitishga xizmat qiladi.

### O'yin turlari

1. (Last man standing) Bu o'yinda o'quvchilar guruh bo'lib ishtirok etadi. O'yinda bittadan sardor tayinlanadi. Sardorlar kopyokni oladi va bittadan so'z aytib koptokni ikkinchi kishiga irg'itadi. Koptokni tutgan odam birinchidagi so'zga bog'liq bitta so'z birikmasi aytib keyingi kishiga uzatadi. O'yin davomida so'z birikmalari qiyinlashib boraveradi. Va bu orqali har bir o'quvchiga o'tilgan yangi mavzu mustahkamlanadi. So'z boyligini oshiradi.

2. (Pictionary). Bu o'yin uchun bizga qirqilgan kartalar va toza doska zarur. O'quvchilarni soniga qarab 5-6 tadan qilib guruxlarga bo'lib olamiz. Har bir guruxdan bittadan vakil chiqib doskada yozilgan so'z,iboralarni rasmlar orqali tushuntirishi kerak. Har bir tasvirlangan rasmga va to'g'ri javobga bir balldan taqdim etiladi. 10 ball to'plagan jamoa g'olib bo'ladi.

3. (Charades) Bu o'yin turi ham (pictionary) o'yiniga chambarchas bog'liq. Farqi ushbu o'yinda, yashirilgan so'zlarni turli harakatlar orqali ko'rsatish lozim.bu orqali sinfda ko'tarinki ruh taqdim etiladi,darsdan zerikkan,uxlash arafasidagi o'quvchilarni harakatga chorlaydi. Guruhlardan vakillar chiqib yashirilgan

iboralarni qo'l, oyoq harakatlari orqali hech qanaqa ovoz ishlatmasdan ko'rsatib berishi lozim. Bu o'yin ham 10 ballik tizimda baholanadi.

4. (What am I thinking) Guruhlarga bo'lingan o'quvchilardan bittadan vakil tanlanadi va yashirin so'zlar yozilgan kartani olishadi. Tanlangan so'zni o'zidan foydalanmasdan uning sinonimi va antonimi orqali matn tuziladi. Kimning tuzgan matnida eng ko'p iboralar, sinonim, antonimlar mavjud bo'lsa usha guruh g'olib deb topiladi va rag'batlantiriladi.

Foydalilanlgan adabiyotlar:

1. Eunice Kit-Lam Tang "Developing speaking skills with games,towards a co-operative learning approach" [etang@mail.shccc.edu.hk](mailto:etang@mail.shccc.edu.hk)
2. Kade Sukemi Ide Ayu, Oke Pumarni Ide Ayu "Developing students speeking through guessing games" [duyusukreni13@gmail.com](mailto:duyusukreni13@gmail.com)  
[idaayuokapurnami@gmail.com](mailto:idaayuokapurnami@gmail.com)
3. Djabbarov, S. (2020). article Ingliz tilidagi frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari: Ingliz tilidagi frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(68). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/3470](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3470)
4. Djabbarov, S. (2020). Статья Проблемы управления качеством образования в вузе в Республике Узбекистан: проблемы управления качеством образования в вузе в Республике Узбекистан. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(53). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4561](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4561)
5. Djabbarov, S. (2020). article Ijtimoiy-psixologik kompitetlilik tushunchasi xususida. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(52). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4897](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4897)
6. Djabbarov, S. (2020). Бўлажак чет тил муаллимининг касбий тайёргарлиги ва уни шакллантириш йўллари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(52). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4899](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4899)